



UDK: 323:342.5/7 (584.4)

Kamoliddin MIRZAAXMEDOV,
O'zbekiston Milliy universiteti professor v.b., DSc
E-mail: k.siyosatshunos@gmail.com

TDU professori, DSc X.Rajabov taqrizi asosida

DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TIZIMIDAGI INTEGRATSION JARAYONLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlat boshqaruvi samaradorligini baholash jarayonining nazariy-konseptual asoslari, ilmiy yo'nalishlari, bosqichlari hamda baholash indikatorlari ochib berilgan. Shu bilan birga, davlat boshqaruvida sifat va natijadorlikka erishish omili sifatida boshqaruvning institutsional-funksional jarayonlari samaradorligini baholash ilmiy asoslantirilgan.

Kalit so'zlari: Boshqaruv, davlat boshqaruvi, samaradorlik, baholash, natijadorlik, davlat boshqaruvi organlari, boshqaruvchi kadrlar, davlat xizmati, legitimlik.

ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И ОБЩЕСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация

В статье описаны теоретические и концептуальные основы, научные направления, этапы и оценочные показатели процесса оценки эффективности государственного управления. При этом оценка эффективности институционально-функциональных процессов управления как фактора достижения качества и эффективности в государственном управлении имеет научную основу.

Ключевые слова: Управление, государственное управление, эффективность, оценка, действенность, органы государственного управления, управленческий аппарат, государственная служба, легитимность.

INTEGRATION PROCESSES IN THE SYSTEM OF STATE AND SOCIETY GOVERNANCE

Annotation

This article describes the theoretical and conceptual basis, scientific directions, stages and evaluation indicators of the process of evaluating the effectiveness of public administration. At the same time, the assessment of the effectiveness of institutional-functional processes of governance as a factor in achieving quality and efficiency in public administration is scientifically based.

Key words: Governance, public administration, efficiency, evaluation, efficiency, public administration bodies, management staff, public service, legitimacy.

Kirish. XXI asrda tezkor globallashuv sharoitida davlat boshqaruvi tamoyillari o'zgarib, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangi mazmun kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, zamonaviy siyosiy-huquqiy tizimlarda "davlat – jamiyat" o'rtasidagi integratsion hamkorlik ustuvor boshqaruv modeli sifatida shakllanmoqda. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, xususiy sektor va davlat tashkilotlari o'zaro muvofiqlikda ish olib boradigan kompleks boshqaruv tizimini vujudga keltirmoqda. Zamonaviy dunyoda an'anaviy ravishda davlat boshqaruvining bir nechta modellari mavjud. Ammo davlat boshqaruvi jamiyatda tartibni ta'minlashning ma'lum bir vositasi sifatida ta'riflanadi [1]. Bu uning maqsadlarini jamoat manfaatlariga mos kelishini, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishishda boshqaruv subyektlarining yuqori darajada tashkil etilishini nazarda tutadi hamda dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XVII-XVIII-asrlarda ishlab chiqilgan va umumiy manfaatlar uchun fuqarolarning davlat boshqaruvi qoidalari va tamoyillari bo'yicha kelishuvga erishishni o'z ichiga olgan ijtimoiy shartnoma tuzish zarurligini ko'rsatadigan "ijtimoiy shartnoma" nazariyasi yetakchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu nazariyaning eng muhim hujjatlaridan biri bo'lgan Jan-Jak Russoning "Ijtimoiy shartnoma to'g'risida" (1762) risolasida xalq dastlabki ijtimoiy kelishuvni tiklash yo'li bilan yo'qotilgan erkinlikni tiklashga qonuniy huquqqa ega ekanligi ta'kidlangan

va erkinlik, tenglikka rioya qilishga asoslangan davlat qurilishiga qat'iy ishonch bildirilgan edi [2].

Nemis faylasufi Kurt Xyubner o'zining "Millat: unutilishdan Uyg'onishgacha" asarida ta'kidlaganidek, Russoning kontsepsiyasi, Amerikaning "Huquqlar to'g'risida Bill", Fransiyaning Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi kabi davr hujjatlari nafaqat ma'rifatparvarlik g'oyalari asoslabgina qolmay, balki "eng yaxshi ijtimoiy tuzum" davlat siyosatini yaratish g'oyasini ham ifodalab berdi.

1950-1960-yillarda London Iqtisodiyot maktabining siyosatshunoslik kafedrasiga rahbarlik qilgan atoqli ingliz olimi M.Oukshott ma'muriy-davlat boshqaruvining ikkita konsepsiyasini ishlab chiqdi: maqsadli hamda fuqarolik. M.Oukshottning fikricha, ma'muriy-davlat boshqaruvining bunday turlari o'zining sof ko'rinishida hech qayerda uchramaydi, chunki ular ideal nazariy konstruksiyalarni ifodalaydi. Ammo shuni aytish mumkinki, Yevropa xalqlari o'rta asrlarning oxirlarida davlat ichidagi "maqsadli birlashmaning ongsiz birdamligi" dan bizning zamonamizning ongli fuqarolik birlashmasigacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tdi [3].

1992-yilda Devid Osborn va Ted Gebler [4] tomonidan yaratilgan "Boshqaruvni qayta tashkil etish: tadbirkorlik ruhi davlat sektorini qanday o'zgartiradi?" nomli yangi asari ilm ahliga taqdim etildi. Bu kitobda zamonaviy davlat va jamiyat boshqaruvinini tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy yondashuvlar, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida olingan

xulosa hamda takliflar keltirilgan. Keyinchalik Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanshi Tashkiloti turli mamlkatlarda amalga oshirilgan davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlarni tahlil qilib, “yangi davlat boshqaruvi” uslublarini o'ziga xos holda umumlashtirdi.

Tadqiqot metodologiyasi. 1930-yillarning boshlarigacha ilmiy tadqiqotlar odatda davlat institutining rasmiy-huquqiy tavsifi bilan cheklanib qolgan, chunki ma'muriy-davlat boshqaruvinini o'rganishda institutsional yondashuv ustunlik qilardi. Bu davrning eng mashhur olimlari E.Barker, D.Koul, G.Laski, S.Menning, V.Robson, G.Finer va boshqalar edi. Shu davrdan boshlab ingliz ma'muriy va davlat boshqaruvi maktabida davlat boshqaruvinini o'rganishning xulq-atvor usullari ustunlik qila boshladi. Xulq-atvor metodologiyasi doirasida ikkita asosiy yo'nalish - sotsiologik va iqtisodiy yo'nalish rivojlandi, ularning kelib chiqishi inson xulq-atvorining tabiatini ikki xil tushunish bilan bog'liq edi. Iqtisodchilar siyosat va davlat boshqaruvinini o'zgarmas maqsadlarga ega bo'lgan, maksimal foyda olish istagi bilan cheklangan odamlarning oqilona faoliyati sohasi sifatida ko'rsa, sotsiologik yondashuv tarafdorlari esa, aksincha, bunday noaniqlik va primitivizmdan qochishga intilib, siyosiy xulq-atvor va jamoat faoliyatida madaniy an'analar ta'sirining natijasini ko'rib, inson ko'p hollarda ongsiz ravishda bo'ysunishga moyilligini isbotlashga harakat qildi [5].

Jahon banki 1996-yildan boshlab, qariyb 200 mamlakat bo'yicha davlat boshqaruvi sifatini monitoring qila boshlamogdi. Uning uslubiyatiga ko'ra, davlat boshqaruvi sifatining klobal ko'rsatkichlari ichiga quyidagilar: davlat va jamiyat boshqaruvi jarayonida muhim qarorlar qabul qilishda fuqarolarning ishtiroki va davlat boshqaruvi organlarining hisobdorligi; siyosiy barqarorlik; davlat va jamiyat boshqaruvi samaradorligi; davlat siyosatining sifati; qonun ustuvorligi; korrupsiyaga qarshi kurashish [6] kirdi. 1997-yilda BMT tomonidan ishlab chiqilgan Taraqqiyot dasturlarida ilk bor “Good Governance” ta'limoti yaxlit konsepsiya sifatida o'z aksini topdi. “Good Governance” modeli Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Yevropa Ittifoqi tomonidan yanada rivojlantirildi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, XXI asr sivilizatsiyasining o'zgarishi tufayli davlat siyosiy jarayonlarida fuqarolarning ishtiroki tez sur'atlar bilan o'sib bormogda. Fuqarolarning jamoaviy ishtiroki destruktiv yo'nalishda harakat qilsa, jamiyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, ammo konstruktiv yo'nalishda harakat qilsa, oxir-oqibat siyosiy demokratiyani va iqtisodiy o'sishni rivojlantirish orqali hayot sifatini yaxshilaydi. Tarixiy tajriba mamlakatning siyosiy jarayonlarida fuqarolarning ishtiroki ijobiy natija bilan bir qatorda, salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. O'tgan asrning 70 va 80-yillarida budget taqchilligining ro'y berishi, savdo balansining buzilishi, davlat qarzining oshib ketishi natijasida bir qator rivojlangan mamlkatlarda davlatning iqtisodiyotdagi rolini qayta ko'rish, xususiy lashtirishni jadallashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni xususiy sektor bilan birgalikda moliyalashtirish, transaktsion xarajatlarni kamaytirish masalalari dolzarb bo'lib qoldi va ularni yechish maqsadida ma'muriy islohotlar amalga oshirildi. O'sha davrdagi zamon talablari “menejerializm”, “oqilona tanlov nazariyasi”, “shartnoma nazariyasi”, “noaniqlik sharoitida ratsional qarorlar qabul qilish nazariyasi”, “o'yinlar nazariyasi”, “biznes menejment va marketing” usullarini davlat boshqaruvida qo'llashni taqozo etardi.

Jumladan, zamonaviy Germaniyada davlat va jamiyat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar aynan o'tgan asrning 90-yillarida boshlandi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi: xalqaro raqobat va globalizatsiya jarayonlari,

tashqi muhit holati noaniqligi darajasining oshib borishi, byurokratik boshqaruv tizimlarining tashqi ta'sirlarga moslashuvchanligi darajasining pastligi [7]. Aniqlor qilib aytganda, “Veberianizm”dan “yangi davlat boshqaruvi”ga o'tish jarayonlari boshlandi. Davlat va jamiyat boshqaruvining “samaradorlikni ta'minlash va o'zgarishlarga moslashuvchanlik” tamoyillari ustuvor deb tan olindi, “formal qoidalarni o'zgartirmaslik va ularga tayanish” tamoyillari esa, o'z ustuvorligini tamomila yo'qotdi. Germaniyada davlat va jamiyat boshqaruvi tizimining yana bir o'ziga xos xususiyati uning nisbiy markazsizlashuvi bilan hokimiyatning aniq markazlashuvi, ya'ni mutlaqo qarama-qarshi ikkita hodisadir. Germaniyada davlat boshqaruvida federatsiya va federal shtatlar o'rtasida vakolatlarining aniq chegaralanishi mavjud.

Fikrimizcha, Germaniya – federativ davlat bo'lib, u “zamonaviy demokratiya+ huquqiy davlat + kuchli fuqarolik jamiyati”ni muvaffaqiyatli uyg'unlashtirgan boshqaruv modelini shakllantirgan. Uning boshqaruv tizimida markaziy hokimiyat bilan birgalikda mustaqil federal yerlar (Länder) va mahalliy hokimiyat organlarining o'zaro hamkorligiga asoslangan samarali detsentralizatsiya modeli mavjud. Germaniyada davlat boshqaruvi samaradorligi, transparentligi, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonidagi ishtiroki va hisobdorlik mexanizmlari yuqori darajada tashkil etilgan. Germaniya modeli ko'plab rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham o'rnak bo'ladigan amaliy yo'nalishlardan iboratdir. Xususan, mahalliy boshqaruvni kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini joriy etish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha ushbu tajriba alohida ahamiyatga ega.

Ingliz akademik ijtimoiy fanlari tizimida davlat va jamiyat boshqaruvinini o'rganish o'tgan asrning oxirida, London universitetida London iqtisodiyot va siyosatshunoslik maktabi tashkil etilgan paytdan boshlandi. Bu maktabda, keyinchalik Oksford, Kembrij, Manchester, Liverpool va boshqa universitetlarda Ikkinchi jahon urushigacha davlat va jamiyat boshqaruvi, siyosiy institutlar, davlat xizmati, ingliz konstitutsiyaviy va ma'muriy huquqini o'qitish va o'rganish jamlangan edi. Zamonaviy Angliyadagi davlat va jamiyat boshqaruvi tizimi dunyoda eng qadimiy, barqaror va demokratlashgan boshqaruv shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu tizim murakkab, shu bilan birga, tarixiy evolyutsiyani boshidan kechirgan va zamonaviy “boshqaruv konsepsiyasi”ni o'zida mujassam etgan mexanizmlarga asoslangan. Angliyada fuqarolik jamiyati instituti rivojlangan bo'lib, u jamiyat boshqaruvida quyidagi mexanizmlar orqali faol ishtirok etadi:

- nodavlat notijorat tashkilotlari;
- ommaviy muhokama va kengashlar;
- elektron boshqaruv;
- media va jamoat nazorati.

Angliyaning davlat va jamiyat boshqaruvi tizimi yuqori darajada institutsionallashtirgan, demokratik qadriyatlarga tayangan, jamiyat bilan muloqot va hisobdorlik prinsiplariga asoslangan tizimdir.

Fransiyada davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi islohotlar 1982-yildan boshlangan va ular, asosan, “Kuchli davlatdan-kuchli jamiyatga o'tish” hamda davlat boshqaruvinini axborotlashtirishga yo'naltirilgan. Xususan, kommuna (ya'ni mahalla fuqarolar yig'inlari), departament (ya'ni tuman va shahar hokimliklari) va hududlar (ya'ni viloyatlar hokimliklari) vakolatlari hamda erkinliklari borasida qonunlar qabul qilindi. Shu tariqa davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi nomarkazlashtirildi, ya'ni funksiyalarning muayyan qismi markaziy davlat boshqaruvi organlaridan hududiy boshqaruv organlariga o'tkazildi. 2000-yillarda davlat boshqaruvinini nomarkazlashtirishning navbatdagi islohoti amalga oshirildi:

hududlarni moliyaviy jihatdan mustaqilligi ta'minlandi, ya'ni fiskal nomarkazlashtirish amalga oshirilib, bundan buyon soliqlarning aksariyat qismi mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishga yo'naltiriladigan bo'ldi. Mahalliy organlarning mahalliy budjet siyosatidagi roli keskin ravishda oshirildi. Bu esa, o'z navbatida, hududlarga davlat tomonidan dotatsiya berish amaliyotiga deyarli barham berdi. Bundan tashqari, hududlarning notekis rivojlanishining oldini olish maqsadida "hududiy premiyalar tizimi" joriy etildi.

20-asrning birinchi choragida Yevropa boshqaruv fanida eng yirik nomoyonda A.Fayol desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning boshqaruv nazariyasi 1916-yilda nashr etilgan "Umumiy va sanoat boshqaruvi" kitobida bayon etilgan. Fayol o'zi yaratgan "Ma'muriy tadqiqotlar markazi"ga rahbarlik qilgan. U o'zi ishlab chiqqan boshqaruv tamoyillari universal va deyarli hamma joyda: iqtisodiyotda, davlat xizmatlari va muassasalarida, armiya va flotda qo'llanilishini isbotladi. Fayol g'oyalari asosan Amerika menejment klassiklari (F.Teylor, G.Emerson, G.Ford) nazariyalari bilan mos keladi. Ular insonning boshqaruvdagi o'rni to'g'risidagi asosan mexanik qarashga ega bo'lgan "ilmiy boshqaruv" maktabining "oltin fondi"ni tashkil etar edi [8]. Zamonaviy davrda Fransiyada davlat va jamiyat boshqaruvi Yevropadagi eng markazlashgan, ma'muriy jihatdan tizimlashtirilgan boshqaruv modellaridan biridir. Bu tizimning asosini respublikaviy boshqaruv shakli, qat'iy vertikal ijroiya hokimiyat va kuchli byurokratik mexanizm tashkil etadi. Jamiyat boshqaruvida esa davlatning yetakchi roli, jamoatchilik ishtiroki va davlat xizmatlarining samaradorligi asosiy mezonlar sirasiga kiradi. Fransuz boshqaruv tizimi etatistik (etatist) nazariya asosida shakllangan bo'lib, bu yondashuvga ko'ra davlat - jamiyatni boshqaruvdagi markaziy subyektdir. Davlatning rolini minimallashtirish emas, aksincha, uning strategik rahbarligini kuchaytirish g'oyasi ustuvordir [9]. Fransiyadagi davlat va jamiyat boshqaruvi tizimi tarixiy jihatdan markazlashgan, davlatning yetakchi roliga tayanuvchi, lekin demokratik institutlar, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari bilan uyg'unlashgan modeldir. Fransuz modeli O'zbekiston uchun detsentralizatsiya, mahalliy boshqaruv, davlat xizmatlarini raqamlashtirish kabi sohalarda o'rganish va moslashtirish uchun muhim namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bizningcha, davlat boshqaruvi sohasida turli islohot va o'zgarishlar natijasida XX asrning 90-yillariga kelib, davlat "boshqaruvchi" emas, "ishtirokchi"lardan biri ekanligi yaqqol namoyon bo'la boshladi. Bu borada davlatning vertikal boshqaruvdan davlat hokimiyati idoralari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi, ya'ni gorizontal tartibga o'tganligini ko'rsatish mumkin. Bu o'z navbatida, davlat qarorlari qabul qilinishi jarayonida barcha manfaatdor tomonlar ishtirok etishiga olib keldi.

Ma'lumki, AQShda davlat boshqaruvinin samaradorligini aniqlovchi indekslardan biri - bu fuqarolarning davlat xizmatlaridan qoniqqanligi darajasidir (ACSI - American Customer Satisfaction Index). Buning asosida har yili dekabr oyida federal hukumatlarning joriy yildagi faoliyatiga baho berish tizimi amaliyotga tatbiq qilingan. Amerika davlat boshqaruvi maktabi rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq uning ko'plab taniqli vakillari nafaqat nazariyotchilar, balki amaliyotchilar ham bo'lishgan. Amerika maktabida haqli ravishda klassik yo'nalish asoschilaridan biri hisoblangan professor L.Uayt - davlat xizmati ishlari bo'yicha komissiya a'zosi sifatida keng ko'lamli amaliy faoliyat olib bordi. Uning "Davlat boshqaruvi faniga kirish" (1926) fundamental nazariy asari ko'p jihatdan AQSH davlat boshqaruvi amaliyotini umimlashtirish hisoblanadi. So'nggi o'n yilliklarda AQShda davlat va jamiyat boshqaruvi tizimida

"tashkiliy rivojlanish kontsepsiyasi" katta qiziqish uyg'otdi. Uning kelib chiqishini boshqaruv xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirishga bag'ishlangan ishlanmalarda topish mumkin. Nazariy jihatdan u A.Maslou, M.Makgregor, R.Likert asarlaridan ko'p narsani oladi. Amerika maktabida "tashkiliy rivojlanish" tushunchasining umumiy qabul qilingan ta'rifi haligacha mavjud emas. Biroq, aytish mumkinki, bu kontsepsiyaning dastlabki asosi ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar tezligi va murakkabligi oshishini tasdiqlashdir.

Mazkur zamonaviy konsepsiya quyidagi xususiyatlarni ilgari suradi: tez o'zgaruvchan ijtimoiy-siyosiy muhit talablariga muvofiq davlat boshqaruvi yangi maqsadlariga moslashishi kerak; davlat va jamiyat boshqaruvinin yetakchi siyosiy institutlari hamkorlik qilishi qobiliyatiga ega bo'lishi shart; davlat va jamiyat boshqaruvi tizimining barcha jabhalarini rivojlantirishda davlat xizmatchilari o'zgarishlarni, strategik maqsadlarni belgilash va qarorlar qabul qilishda barcha darajada ishtirok etishi qoida hisoblanishi kerak; rivojlanayotgan ma'muriy va davlat boshqaruvi institutlari o'z a'zolarining o'zini o'zi anglashi uchun qulay imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Bu davlat xizmatchilari o'rtasida erkin muloqot (ochiq muloqot) va yuqori darajada o'zaro ishonchni talab qiladi, bu esa barcha qarama-qarshiliklarni konstruktiv hal qilishga hissa qo'shishi kerak [10].

Fikrimizcha, tashkiliy rivojlanishning maqsadi davlat va jamiyat boshqaruvi tizimi faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat. Bu, jumladan, ma'muriy tuzilmalarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishdagi o'zgarishlarga, boshqaruv tizimining o'zida tuzilma va uslublardagi o'zgarishlarga tez moslasha olishi bilan ta'minlanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday davlatga mos keladigan universal boshqaruv modeli mavjud emasligini ilmiy jamoatchilik isbotlamog'da. Biroq, bir nechta boshqaruv tizimlarini taqqoslash va bir nechta davlat modellarini sinchkovlik bilan o'rganish orqali davlat boshqaruvinin u yoki bu modelini yanada samaraliroq bo'lishiga yordam beradigan xulosa va natijalarga erishish mumkin. Jumladan:

Davlat va jamiyat boshqaruvinin integratsiyalashuvi fuqarolarning faol ishtirokisiz samarali amalga oshmaydi. Xorij tajribasida, ayniqsa Germaniya va Shveysiyada, jamoatchilikning boshqaruv jarayonlarida bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi (qonun muhokamalari, mahalliy kengashlar, elektron petitsiyalar) orqali integratsiya jarayoni fuqarolar manfaatlarini bilan uyg'un holatda olib boriladi.

Integratsiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi davlat xizmatlarining ochiqqligi va hisobdorligiga bog'liq. Angliya, Kanada va Niderlandiyada davlat organlari jamoatchilik oldida faoliyati yuzasidan ochiq hisobot berish, jamoatchilik muhokamalarini yo'lga qo'yish va fuqarolarning munosabatini inobatga olish orqali jamiyat bilan mustahkam muloqotni ta'minlagan.

Elektron boshqaruv platformalari davlat va jamiyat o'rtasida samarali ko'priki vazifasini bajaradi. Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlarda raqamli boshqaruv tizimlari fuqarolarga jadal, qulay va shaffof xizmat ko'rsatish imkonini yaratgan, bu esa jamiyatda davlatga ishonchni oshirgan.

Integratsiya jarayonlari markazlashgan boshqaruvdan detsentralizatsiyaga bosqichma-bosqich o'tish orqali amalga oshiriladi. Fransiya va Italiya kabi mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalliy hokimiyatlarning mustaqilligi oshgan sari, jamiyatning davlat boshqaruvidagi ishtiroki ham kengaygan, qaror qabul qilish jarayoni hududiy ehtiyojlarga moslashtirilgan.

Institutsional hamkorlik platformalari integratsiyani tizimli ravishda rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. AQSH va Yaponiyada davlat organlari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida doimiy muloqot va hamkorlik platformalari mavjud. Masalan, jamoatchilik maslahat kengashlari va aralash ishchi guruhlar tizimli hamkorlik imkonini yaratadi.

Integratsiyani rivojlantirish uchun davlat siyosatida "hamkorlikka asoslangan boshqaruv" konsepsiyasi ustuvor o'rin tutishi zarur. Singapur, Niderlandiya va AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlatning barcha darajalardagi siyosatida fuqarolar, biznes va NNTlar manfaatlarini inobatga olgan holda harakat qilish integratsiya jarayonini tizimlashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Romanov V. L. Social self-organization and public administration: author. dis. ... d-RA SOC. Sciences: 22.00.08 / -M., 2001. - 49 p.
2. Сидорина Т.Ю. Государство всеобщего благосостояния: от утопии к кризису. -М.: РГТУ, 2013. -349 с.
3. Oakshott M. An Misunderstanding Human Contract // Political Theory. L., 1976. Vol. 4. № 3. P. 366-367.
4. Osborne D.E., Gaebler T. Reinventing government: how the entrepreneurial spirit is transforming the public sector. MA: Addison-Wesley, 1992.
5. Мескон М.Х., Альберт Х., Хедоури Ф. Основы менеджмента: Пер. с англ. -М.: Дело, 2013. С. 81.
6. Manba: <http://info.worldbank.org/governance/wgi/index.asp>.
7. Германия. Вызовы 21 в. / под ред. В.Б.Белова. -М., Весь мир, 2019.
8. Управление - это наука и искусство /А. Файоль, Г. Эмерсон, Ф. Тейлор, Г. Форд. М.: Республика, 1992. С. 12
9. Rosanvallon, P. L'État en France: de 1789 à nos jours. Le Seuil, 1990.
10. Mirzaaxmedov K.. Davlat boshqaruvi / O'quv qo'llanma. -Toshkent, "Zilol buloq", 2025. -30 b.